

O‘ZBEKISTONDA AXBOROT ERKINLIGI IMKONIYATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING IJTIMOIIY FALSAFIY MUAMMOLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-23-175-179>

Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich

Samarqand davlat universiteti Falsafa va milliy g‘oya kafedrası
Falsafa doktori (PhD) dosent.

baxri83@gmail.com

Po‘latov Jalol Rustamovich

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada axborot tushunchasi va uning bugungi kunda tutgan o‘rni to‘g‘risida fikr yuritilgan. Taraqqiyotning yangi bosqichida erkin informatsion muhitning yaratilishi, insonlarning tafakkur darajasining oshib borishiga xizmat qilayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Tarixan qisqa davr mobaynida axborot sohasini erkinlashtirish, senzura yo‘l qo‘ymaslik hamda axborot erkinligini optimallashtirishga qaratilgan chora tadbirlarni ko‘lamini kengaytirish borasida qillinayotgan va qilinishi kerak bo‘lgan ishlar to‘g‘risida falsafiy mushohada yuritilgan.

***Kalit so‘zlar:** axborot, axborot olish huquqi, muloqot, informatsion muhit, senzura, islohot.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье была рассмотрена концепция информации и ее роль на сегодняшний день. Показано, что на новом этапе развития создание свободной информационной среды способствует повышению уровня мышления людей. В течение исторически короткого периода философски обсуждался вопрос о предпринимаемых и необходимых мерах по либерализации информационной сферы, недопущению цензуры и расширению спектра мер, направленных на оптимизацию свободы информации.

***Ключевые слова:** информация, право на информацию, коммуникация, информационная среда, цензура, реформа.*

ABSTRACT

This article discusses the concept of information and its role today. It is indicated that the creation of a free information environment at a new stage of development contributes to an increase in the level of thinking of people. In a

historically short period of time, a philosophical observation has been made on the work that is being done and should be done to liberalize the information sector, prevent censorship and expand the scope of measures aimed at optimizing the freedom of information.

Keywords: *information, right to information, communication, information Environment, censorship, reform.*

KIRISH

Fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish modelining asosiy jihatlaridan biridir. Shu bois mustaqillikning ilk yillaridan boshlab yurtimizda matbuot erkinligi va jamiyatni axborotlashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. O'tgan yillar mobaynida ommaviy axborot vositalari uchun mukammal huquqiy baza yaratildi. O'zbekistonda barqaror rivojlanish jarayonlarini yanada tezlashtirish va samarasini oshirish uchun ilg'or iqtisodiy mexanizm, zamonaviy ilmiy yo'nalishlar va innovatsion axborot texnologiyalarni yaratuvchi ijodkor yoshlar va yangicha tafakkur sohiblarini tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Hozirgi shiddatli davr tezkor axborot va yangiliklar talqiniga katta ehtiyoj uyg'otdi. Zero har bir fuqaro matbuot orqali axborotga bo'lgan ehtiyojini qondiradiki, shu bilan birga fikr va tafakkur doirasidagi ma'lum bir o'zgarishlarni his etadi. Binobarin, demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatining ravnaq topishida fikrlar ustuvorligining o'zni beqiyos. Jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa hususida holis axborot bera olish esa ommaviy axborot vositalarining birlamchi vazifasidir. Shu vazifani bajarar ekan, gazeta va jurnallar, radio va televideniya omma bilan hokimiyat o'rtasidagi o'ziga xos aloqa vositasi, oshkoralik ko'zgusi, haqiqat jarchisi bo'lib xizmat qiladi.

Bekzod Xodjayevning fikriga ko'ra “axborot madaniyati” tushunchasi ikkita fundamental tushuncha: axborot va madaniyat tushunchalariga asoslanadi [1.40]. Bundan kelib chiqib, bu tushunchani talqin qilishning “madaniyat” va “axborot” yondashuvlariga ajratib qarashlar mavjud. Madaniyat yondashuvi doirasida axborot madaniyatini axborotlashgan jamiyatda insonning yashash faoliyati usuli sifatida, insoniyat madaniyati shakllanishi jarayonining tashkil etuvchisi sifatida qaraladi. Axborot yondashuvi doirasida esa unga axborot talabini qondirishga qaratilgan barcha axborot faoliyati bilimlari majmuasi sifatida qaraladi.

Dunyoni va insonlarni o'zgartirishga qodir bo'lgan informatsiya (axborot) o'zi nima? Bu savolga olimlar quyidagicha javob berishgan. Masalan, N.Viner “Axborot – tashqi olamga ko'nikish jarayonida undan olingan mazmunni ifodalashdir” [2]. (Bu yerda axborot tashqi olamni aks ettirish (gnoselogik jihat) va adaptatsiya (unga

ko`nikish) deb ifodalanadi), L.Popov: “Axborot kommunikatsiya va aloqa jarayonidagi noaniqlikning bartaraf qilinishi” [3], deb hisoblaydi. (Bu ta’rifda asosan axborotning falsafiy-psixologik (kommunikatsiya, aloqa) tomoniga e’tibor qaratiladi.) R.Eshbi: “Axborot – strukturalarning me’yori, yangilik, orginallik” [4], L.G.Svitich: “Axborot tushunchasi ko`p ma’noga ega, lekin umumiy falsafiy, metolingvistik ma’noda potensial, keng yoritilgan real mohiyatlarning majmui”[5] – degan ta’riflarni berishgan. Bularning ichida axborotning eng sodda klassik ta’rif bu – ma’lumot berishdir.

Taqdim etish ko`rinishiga ko`ra axborotlarning quyidagi shakllari mavjud:

- Matnli axborot – turli ranglar orqali ifodalanadi.
- Sonli axborot – raqamlar va belgilar yordamida ifodalanadi.
- Garfik axborot – predmetlar, tasvirlar, grafiklar yordamida ifodalanadi.
- Tovushli axborot – og`zaki yoki tovush uzatadigan yozuv shaklida

ifodalanadi.

Axborot vazifasiga ko`ra quyidagi turlarga ajratiladi:

- ommaviy jamiyatning ko`pchilik qismi uchun tushunarli bo`lgan axborotlar;
- maxsus tor ijtimoiy guruh doirasi uchun mo`jallangan axborotlar;
- shaxsiy qaysidir shaxs to`g`risidagi ma’lumotlar majmuidan iborat axborotlar. [6. 7-8]

Rivojlanishni o`z oldiga maqsad qilib olgan har qanday jamiyat avvalo o`z a’zolarining dunyoqarashini optimallashtirishga harakat qiladi. Jamiyatning bunday ko`rinishida taraqqiy etishi insonlar ongida mustaqil fikrning uyg`onishiga asos bo`ladi. Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan voqealarni xolisona baholar ekanmiz, keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o‘ sib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning, radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi tahdidlarning kuchayib borayotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmasdan qo‘ymaydi, albatta”[7]. Ammo, bugungi kunda mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘lida hal etilishi zarur bo‘lgan ayrim masalalar yuzaga kelayotgani, tinch va osuda hayotimizni izdan chiqarishga yunaltirilgan harakatlar zamirida buzg‘unchi g‘oyalar mafkura maydonini qurshab-chirmab olayotgani xammamizni birdek xavotirga solmoqda. Ammo bunday havotirli vaziyatda yoshlarimizning dunyodan xabardor bo‘lishini taminlashimiz har doimgidan ham muhim vazifa bo‘lmoqda.

Axborotni qabul qilish va uni tarqatishda birlamchi vosita sifatida muloqot shaklini ko`rib chiqamiz. Muloqot – bu kishilarning o`zaro bevosita yoki bilvosita

uchrashishi, ko‘rishishi, qabul qilish orqali o‘rnatiladigan munosabatlari natijasida axborotlar almashadigan, olingan ma‘lumotlar bo‘yicha tegishli xulosalar chiqarishga asos bo‘ladigan ko‘p qirrali jarayondir.¹ demak muloqot natijasida insonlar axborotni qabul qiladi va uni tarqatadi. Muloqotni qanday tashkil etilishi esa ushbu jarayon ishtirokchilarining fikr doirasi va ma‘naviy holat bilan chambarchas holda bo‘ladi. Har qanday muloqot ma‘lum maqsadga asoslangan bo‘ladi. Shunga ko‘ra muloqot quyidagi funksiyalarni bajaradi.

- 1) aloqa o‘rnatish – Suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash;
- 2) informatsion – suhbatdosh bilan muayyan ma‘lumotlar, fikrlar va rejalarini almashish;
- 3) faoliyatga undash – suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullashtirish;
- 4) koordinatsion – suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishda harakatlarni muvofiqlashtirish;
- 5) tushunishni ta‘minlash – suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish;
- 6) motivlashtirish – suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg‘otish va ularni o‘zgartirish;
- 7) munosabat o‘rnatish – munosabatlar tizimidagi shaxsiy o‘rnini, mavqeini aniqlash;
- 8) ta‘sir ko‘rsatish – suhbatdoshning xulq atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlari va yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma, dasturlarini o‘zgartirish va h.k bajaradi.

XULOSA

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelamiz:

Birinchidan: globallashuv davrida axborot erkinligi dolzarb masaladir. Axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uning funksiyalarini to‘g‘ri taqsimlash borasida qilinayotgan ishlarning salmog‘ini oshirish zarurdir.

Ikkinchidan: axborotlashgan jamiyat tizimini kengaytirish, axborotdan foydalanish ko‘nikmalarini yoshlarning ongiga amaliy jarayonlar yordamida singdirishga doir ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar ishlab chiqish har qachongidan muhim bo‘lmoqda.

Uchinchidan: axborot manbalarini topishda o‘zaro muloqot vositasidan foydalanar ekanmiz, bu borada axborot yetkazuvchi va uni qabul qiluvchida mustaqil dunyoqarashni shakllantirish falsafiy fanlarning oldida turgan vazifalardan biridir.

¹ “Muloqot” arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida “uchrashish”, “Ko‘rishish”, “qabul qilish” degan ma‘nolarni anglatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.2. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -B.636.

Zero muloqotga kirishuvchilarda tafakkur qobiliyati shakllanmas ekan axborot almashish har doim noto‘g‘ri harakterga ega bo‘lib qolaveradi.

REFERENCES

1. Xodjiev B., Majidov I.U, Bekmuradov A.Sh. O‘quv jarayoni va o‘quv uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta‘lim texnologiyalarni joriy etish Toshkent, “Fan”, 2009, – B. 118.
2. Винер Н. Кибернетика и общество – М.: Наука, 1991. –С.620.
3. Попов В. Информациология и информационная политика. – М.: Луч, 1999. – С.27.
4. Эшби Р. Массовая информация: стратегия и тактика потребления. –М.: Дело, 1993. –С.469.
5. Свитич Л.П Социальная информациология. –М.: Алгоритм, 2000. –С.250.
6. Aliyev B., Melikulov A. Axborot hurujlaridan xabardormisiz? T.: “Ma’naviyat”, 2015. – B. 7-8.
7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.; O‘zbekiston, 2015.
8. Yaxshilikov J, Muhammadiev N. “Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”. – T.: Cho‘lpon NMUI, 2018. – B. 684.
9. Алиев, Б. (2022). Тараққиётда ахборотлашув ва рақамли иқтисодиёт. Academic Research in Educational Sciences, 3(3), 933–947. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-3-933-947>